

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 251 (1312), 2024-yil 11-dekabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## TOSHKENT VILOYATIDA IQTISODIYOTNING BARCHA SOHALARIDA JUDA KATTA IMKONIYATLAR BOR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-dekabr kuni Toshkent viloyatida qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga solish, ish o‘rni va investitsiyani ko‘paytirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Toshkent viloyatida sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, turizm, umuman, barcha sohalarida juda katta imkoniyatlar bor. So‘nggi yetti yilda hudud iqtisodiyoti 1,5 barobar o‘sgan. Sanoat korxonalarini 2 barobar ko‘paytib, 12 mingtaga yetgan.

Lekin imkoniyatlar bundan ancha ko‘p, ular to‘la ishga solinmayapti. Masalan, viloyatdagi jami yerlarning bor-yo‘g‘i 25 foizdan qishloq xo‘jaligida foydalaniladi. Har gektarga to‘g‘ri keladigan daromad ham boshqa joylarga nisbatan kam. Bekobod va Ohangaron shaharlari, Oqqo‘rg‘on, Chinoz, Piskent tumanlarida qayta ishlash darajasi juda past. Oziq-ovqat xavfsizligi, meva-sabzavotlar eksporti ham imkoniyatga yarasha emas.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish choralarini belgilandi. Unga ko‘ra, har bir klaster, fermer va dehqon xo‘jaligi maydonidagi ekinlar, mahsulot hajmi, ishchilari soni, soliq tushumi kabi ma‘lumotlar “Agroplatforma” axborot tizimiga kiritiladi. Kelgusi yilda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan 7 ta tumanida 52 ming gektarda 3 mara taqsim olish yo‘lga qo‘yiladi. 5 ming gektarda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlar tashkil qilinadi.

Umuman, 22 ta tuman-shahardagi yerlar qayta ishlovchi va eksportchi korxonaga bog‘lanadi. Bu orqali kelasi yil 3,5 million tonna meva-sabzavot yetishtirib, 500 million dollar eksport qilish mumkinligi aytiladi.

Toshkent viloyatining infratuzilmasi, logistikasi tadbirkorlik uchun juda qulay. Lekin ishlab chiqarish, savdo va xizmatlar umumiy maydoni uch yilda bor-yo‘g‘i 1,6 million kvadrat metrga oshgan, bu poytaxtdan 3,5 barobar kam. Investitsiyaviy loyihalar uchun toifasi o‘zgartirilgan 9 ming gektar yerning 2 ming gektaridan foydalanilmayapti. Bo‘sh turgan davlat inshootlari ham bor.

Holbuki, investorlar bu hududda “aqli shahar”, tibbiyot klasteri, yashil energetika stansiyasi qurish tashabbusini bildirgan. Vodiylilik va poytaxtlik minglab tadbirkorlar ham biznesini kengaytirish, yangi korxonalar, mehmonxonalar, savdo va turizm majmualari qurish uchun joy izlab yuribdi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va viloyat mutasaddilariga bu boradagi sustkashliklar ko‘rsatib o‘tildi. Bino va yerlarni tadbirkorlarga qulay shartda auksionga chiqarish, ularning negizida investitsiya, ish o‘rni va eksportni ko‘paytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Toshkent viloyati hokimi kelgusi yil 5 milliard dollar investitsiya jalb etish hamda eksportni 2 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha rejalarni taqdimot qildi. Davlatimiz rahbari uning tarkibiga e‘tibor qaratib, kutilayotgan investitsiyaning yarmi shundog‘am rivojlangan Olmaliq, Angren, Chirchiq shaharlari, Ohangaron, Zangiota va Qibray tumanlariga to‘g‘ri kelishini qayd etdi. Shu bois, sanoat va xizmatlar nisbatan orqada bo‘lgan Oqqo‘rg‘on, Bekobod, Bo‘ka, Parkent, Piskent, Quyi Chirchiq va Chinozda qo‘shimcha loyihalar qilib, ish o‘rinlari ochish zarurligi ta‘kidlandi.

Toshkent viloyatidagi imkoniyatlar hisobiga barcha aholini daromadli qilish mumkinligi aytiladi. Kelgusi yilda viloyatda 700 ming odamning bandligini ta‘minlab, ishsizlikni tabiiy darajasigacha tushirish, 22 ming oilani daromadli qilib, kambag‘allikni hozirgi 7,2 foizdan 4 foizga kamaytirish, mehnat migrantlarini yurtimizga qaytarib, ishga joylashtirish vazifa qilib olindi.

Prezidentimiz yig‘ilishda qatnashgan viloyat tadbirkorlari bilan ham muloqot qildi. Ularning taklif va tashabbuslariga alohida e‘tibor qaratib, bu borada mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

## OZIQ-OVQAT SANOATI: MAHALLIYLASHTIRISH VA ISHLAB CHIQRISH KO‘LAMINI KENGAYTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQLDI

Davlatimiz rahbariga oziq-ovqat sanoatida amalga oshirilayotgan ishlar hamda 2025-yilgi rejalari bo‘yicha axborot berildi.

Aholi soni izchil o‘sayotgan bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash dolzarb bo‘lib bormoqda. Buning ustiga, global iqlim o‘zgarishlari, yer va suv taqchilligi qishloq xo‘jaligida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitga qaramasdan, bu yil yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadon ortiq paxta, 16 million tonnadon ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadon ko‘p go‘sht va sut yetishtirildi. Oziq-ovqat sanoati bo‘yicha 343 ta loyiha ishga tushirildi.

Shu bilan birga, mahalliy lashtirish bo‘yicha hali imkoniyatlar ko‘p. Ayniqsa, non, sut, go‘sht, o‘simlik yog‘i, qandolat va salqin ichimliklar ishlab chiqarishni oshirish kerak.

Yig‘ilishda shu boradagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda qandolat mahsulotlari eksporti 4 karra oshib, 13 million dollarga yetgan. Xomashyo, qadoqlash va etiketkalash mahsulotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib kelinib, tanqat 20 foizga kamaygani tufayli raqobatdoshlik ancha oshgan. Bu imtiyozlar muddati 2025-yil 1-yanvarda tugaydi. Ishlab

chiqarishni ko‘llab-quvvatlash maqsadida mazkur muddatni yana 2 yilga uzaytirish taklifi ko‘rib chiqilmoqda.

Yog‘-moy sanoatida 408 ta korxonalar ochilgan. Lekin yurtimizda xom-ashyo kamligi uchun ular har doim ham to‘la quvvatda ishlamayapti. Yog‘-moy eksportiga ruxsat berilsa, ishlab chiqarish 120 ming tonnaga oshib, 240 ming tonna ozuqa yem tayyorlanishi hisob-kitob qilingan.

Bosh vazir o‘rinbosariga bozor talablaridan kelib chiqib, bu borada taklif kiritish topshirildi.

Mamlakatimizda “halol” sertifikatiga ega milliy brend korxonalarini ko‘paytirish, mintaqalar va arab davlatlariga go‘sht mahsulotlari eksport qilyapti. Lekin bizda kolbasa mahsulotlarini saqlashning standart muddati 3 oy etib belgilangan. Xorijdagi iste‘molchiga yetib boruvchi mahsulotlarni saqlash muddati Yevropa standartlari kabi 4-12 oyga oshirilsa, ishlab chiqarish va eksport hajmini 2 karra ko‘paytirish imkoniyati ochiladi. Shuning uchun bu boradagi standartlarni xalqaro standartlarga moslashtirish vazifasi qo‘yildi.

Sut mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida ularni tahlil qiladigan laboratoriyalar tashkil etish zarurligi aytiladi. Shundan kelib chiqib, ushbu mahsulotlarning tabiiy yoki quruq sutdan tayyorlangani to‘g‘risida belgi qo‘yiladi.

Yurtimizda salqin va alkogolsiz ichimliklar, meva-sabzavotdan tabiiy shariat ishlab chiqarish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. So‘nggi 5 yilda ularning eksporti 9 barobar oshib, 35 million dollarga yetdi. Lekin o‘zimizda yo‘q tropik mevalar konsentratiga bo‘l qo‘yilgan uchun boshqa davlatlar mahsulotlari bilan raqobatda yutuq olmayapti. Shu bois, tropik mevalar konsentratlarini bojxonadan ozod qilish taklifi bildirildi.

Yig‘ilishda mutasaddilar “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida sohadagi tadbirkorlar bilan olib borilayotgan o‘zaro manfaatli hamkorlik haqida axborot berdi. Prezidentimiz kelgusi yilda bu ishlarining sifatini yanada oshirish va ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘ZA



Yangi O‘zbekiston ruhi

## INSON HUQUQLARINI TA‘MINLASHNING YANGI DAVRI

Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlarda inson qadrini oshirishga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. “Inson — jamiyat — davlat” paradigmasi asosida davlat xalqning dardu tashvishlarini o‘ylab yashashi va hech kimni muammosi bilan yolg‘iz qoldirmasligi ta‘minlanmoqda. Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo‘yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz — kechagi xalq emas. Bugungi O‘zbekiston ham — kechagi O‘zbekiston emas”, deb islohotlar ortga qaytmas tus olganini ta‘kidlagandi.

Dunyoda ishonch va o‘zaro bir-birini tushunish taqchilligi sezilayotgan, qarama-qarshiliklar va mojarolar kuzatilyotgan bugungi sharoitda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta‘minlash jahon hamjamiyati e‘tibori markazida bo‘lmoqda.

Xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy baxt

Bu yilgi parlament saylovi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq o‘tkazilgan ilk saylov



sifidagi tarixga kirdi. Davlatimiz rahbari saylovlar natijasi bo‘yicha shakllangan yangi parlamentda nutq so‘zlatdi. Kelgusi 5 yilda xalq vakilligining oliy organlarida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalar, qolaversa, barcha bo‘g‘inlardagi ijro organlari, avvalo, hukumat oldidagi eng muhim yo‘nalishlarni belgilab berdi. Bu ma‘ruza mazmun-mohiyati va

dolzarbligiga ko‘ra Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnoma bo‘ldi. Davlatimiz rahbari kelgusi yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va ‘yashil’ iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilishni taklif etdi.

Davomi 3-betda

Nuqtayi nazar



## O‘ZLIKNI ANGLASH SAODATI YOXUD YURTIMIZ TARAQQIYOTINING USTUNLARI

Insoniyat taraqqiyotining umumiy ko‘lamida ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy va siyosiy jarayonlar, texnik va texnologik yangilanishlar misli ko‘rilmagan yuqori sur‘at bilan davom etar ekan, bugun yoshlarimiz ongu tafakkurida milliy g‘urur bilan birga umumbashariy qadriyatlariga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish zarurati mavjud. Doim faxr va iftixor bilan e‘tirof etamiz: yangi O‘zbekistonda o‘tgan qisqa muddatda eng ulug‘, eng aziz ma‘naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, otameros an‘analimiz yanada boyitildi, sayqal topdi.

Aslida, ma‘naviy-axloqiy tarbiya mahsuli bo‘lgan komil insonni tarbiyalashdek ulug‘ maqsad qat‘iy va dadil qadamlar bilan boshlanadi. Bunda ustuvor vazifalarni aniq belgilab olish muhim ahamiyatga ega.

Aynan shuning uchun ham davlatimiz rahbari joriy yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqida “Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma‘naviyatdir. Ma‘naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi” dedi. Bu fikr oldimizga qo‘yilgan ulug‘ maqsadni amalga oshirish hamda eng muhim va ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olish nuqtayi nazaridan g‘oyat qimmatlidir.

Davomi 5-betda

Tahlil va taqqos

## QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI ISLOHOTLAR

AHOLI FAROVONLIGI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI GAROVIDIR

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi bo‘yicha katta imkoniyatga ega. Mazkur soha eksport hajmini oshirish, ish o‘rinlari va aholi daromadini ko‘paytirishda katta manbalardan biridir. Shu ma‘noda, keyingi yillarda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan samarali foydalanish va ekinlardan olinadigan daromadni keskin ko‘paytirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan tabrigida ta‘kidlanganidek, tarmoqda tub tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, ishlab chiqarish munosabatlari zamon talablari asosida yo‘lga qo‘yilayotgani erishilayotgan muvaffaqiyatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa, sohaga ilg‘or agrotexnologiyalar, ilm-fan va innovatsiya yutuqlari keng

joriy etilayotgani ijobiy natija bermoqda. Dehqon va fermerlarning og‘ri yengil bo‘lib, yangi ish o‘rinlari ochilmoqda. Buni 200 ming gektar paxta va g‘alla maydoni qisqartirilib, yurtdoshlarimizga tanlov asosida berilgan hisobiga 2 milliondan ortiq doimiy va mavsumiy ish o‘rni tashkil etilgan misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Davomi 4-betda



SHARAFLI KASBNING ULUG‘ NE‘MATI

4

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mamlakatimizda kechayotgan barcha islohotlar asosi, Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan insonparvarlik tamoyili inson hayoti va erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini kabi umumbashariy prinsiplarni ta'minlashga qaratilgan. Konstitutsiya bayrami ham borgan sari xalqimizning sevimli ayyomlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, Bosh qonunimiz xalqimiz xohish-irodasidan kelib chiqib yangilangani, qadriyatlariga yo'g'rilgan yangi norma va qoidalar bilan to'ldirilgan bu bayramning mohiyati va ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, Konstitutsiya bayrami o'zgacha ruh va shukuh bilan nishonlanmoqda.

Bag'rikenglik

# ISHONCHNI OQLASH FURSATI

## PREZIDENT FARMONI BILAN 483 NAFAR SHAXS AFV ETILDI

Bu bayramni bizdan o'zgarchoq, intiqroq kutadiganlar ham yo'q emas. Ular bilib-bilmay jinoyat sodir etgan, jazo o'tayotgan insonlar va ularning oila a'zolari. Bu bayram bois, e'lon qilinadigan hujjatdan ularning umidli injilari katta.

Mana, ular kutgan hujjat e'lon qilindi. O'zbekiston Prezidenti "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi farmoni imzoladi. Qilmishining qonunga xilofligini anglab yetgan shaxslarga o'z oilasi va jamiyatga qaytishi, ijtimoiy moslashish imkoniyati berilishi xalqimizning kechirimlilik, rahmdillik va bag'rikenglik kabi azaliy qadriyatlarining amaldagi yorqin ifodasidir.

Farmonga muvofiq, bilib-bilmay jinoyat sodir etgan, hozirgi vaqtda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan jazo muddatini o'tayotgan 483 nafar shaxs afv etildi.

Ozodlikning bir oni ham laziz. Bugun xalqimizning bag'rikengligi ifodasi bo'lgan ushbu hujjat sabab ozodlikka chiqarilayotgan insonlar bu so'zlarining qadr-qimmatini chuqurroq anglab yetadi. Ular uchun erkin nafas olish, oilasi va yaqinlari bag'rida bo'lishdan ortiq baxt yo'q.

Afv etilgan shaxslarning 107 nafari jazodan to'liq, 275 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinadi, 7 nafariga tayinlangan jazo yengilroq'i bilan almashtiriladi. Shuningdek, 94 shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosi muddatlari qisqartiriladi.

Afv etish Prezidentning Konstitutsiyada belgilangan vakolatlari doirasiga kiruvchi yuridik shakldagi normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi, —

Afv etilgan shaxslarning 107 nafari jazodan to'liq, 275 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinadi, 7 nafariga tayinlangan jazo yengilroq'i bilan almashtiriladi. Shuningdek, 94 shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosi muddatlari qisqartiriladi.

deydi O'zbekiston Oliy sudi sudyasi Turg'unali Mirzayev. — U Prezident tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi. Afv etishdan ko'zlangan asosiy maqsad davlatning jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan g'amxo'rlik va insonparvarlik tamoyillari nuqtayi nazaridan, aynan shu jinoyat sodir etgan shaxslarning manfaati emas, balki ularning oila a'zolari, yaqinlari va voyaga yetmagan farzandlarini ota-onasi mehridan bahramand bo'lishi, ularning oilada tutgan o'rmini doimiy ravishda ta'minlash maqsadida qabul qilinadi.

Afv jazo o'tayotgan mahkumlarning shaxsi, xulq-atvori, ular sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, oqibati va jinoyat sodir etgandan so'ng qilmishidan pushaymon bo'lib tuzalish yo'lga o'tgani, shu bilan birga, jazoni o'tash davomida tarbiyaviy nuqtayi nazardan ijobiy baholangani va boshqa qator jihatlari o'rganilib, afv komissiyasi tomonidan xulosa qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasasi. Baland va og'ir darvoza ochildi. Afv etilganlar birin-ketin tashqariga chiqmoqda. Ular uchun bugungi kun — yangi hayot, yangi imkoniyat.

Bu manzarani kuzata turib, har qanday insonning eti junjikishi, ko'zida yosh qalqishi, beixtiyor ular quvonchiga chin dildan sherik bo'lishi aniq.

— Ismimni o'qigan paytda qaytadan dunyoga kelganday bo'ldim, — deydi G.Xalilova. — Ozod bo'lishimni eshitib, qanchalik quvonimni so'z bilan ifodalab berolmayman. Prezidentimizning afv to'g'risidagi farmoni bilan ozodlikka chiqaymiz. Bizga yana bir imkon, ishonch bildirildi. Men anglab yetdimki, ozodlik qadriini hech narsa bilan o'lchab

bo'lmaydi. To'rt farzandim bor. Uyimda ayol kishi yo'q. Bolalarim parvarishi bilan faqat o'zim shug'ullanar edim. Bu yerda o'tgan davr mobaynida ozodlikka qanchadan qancha yutuqlarga erishgan bo'ldim. Afsuski, ko'p yaxshi kunlarimni panjara ortida o'tkazishga to'g'ri keldi. Farzandlarim tarbiyasiga ham e'tibor berolmadim. Endi bu imkoniyatdan foydalanib, ularni el-yurtga foydasi tegadigan munosib o'g'il-qizlar etib tarbiya qilaman.

Hech kim yaqinlarini o'zidan yiroqda, tutqunlikda ko'rishni istamaydi. Oila, qadrdonlar davrasida o'tgan har bir kun, har lahza bayram. Shu bois, otanasi va farzandlari bag'riga qaytayotganlarning hayajonini tushunish mumkin. Ular bu yerdan ozodlik, erkinlikning qadriini yuz karran anglab chiqaypti.

Afv etilganlar bundan keyin nafaqat oila a'zolari, balki mahalladoshlar, umuman, keng jamoatchilik e'tiborida bo'ladi. Farmonda afv etilgan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishi uchun ularga ko'mak berish maqsadida mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

Farmon asosida afv etilganlarning 25 nafarini chet el fuqarolari, 32 nafarini ayol, 5 nafarini 60 yoshdan oshgan erkaklar, 274 nafarini yoshlar, 104 nafarini voyaga yetmaganlar hamda 6 nafarini taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Otasiga talpingan, boshida bir oz begonasirab, so'ngra uni mahkam quchoqlab olgan bolakaylar, farzandlarining yuz-ko'zidan o'pib, uni qayta-qayta bag'riga bosayotgan onalar, suyuqli yorini o'z uyida ko'rib turganiga ishonolmay, unga nazar solayotgan ayollar... Ular his etgan narsani to'liq tushunishimiz, anglashimiz dargumon. Biroq bilimziki, shukronalik, minnatdorlik, mamnunlik ularning yuzlarida balqib turibdi.

Bu voqea yurtimizdagi insonparvarlik siyosati, xalqimizga xos bag'rikenglik, kechirimlilik bo'lish, olijonlik va meh-muruvvat ko'rsatish kabi ezgu fazilatlarining amaliy ifodasidir.

Bir ezgulik va yaxshilik keyingilarini ham boshlab keladi. Ko'plab xayrli amallarga yo'l ochadi. Oilasi bag'riga qaytgan, qilmishidan xulosa chiqqan, bugun siz biz kabi erkin bo' insonlar endi ham davlat va jamiyat mehri-e'tiborini his etadi.

Bayramlarda katta-kichik sovg'alar ulashish udumi bor. Lekin inson qanchalik xohlasa-da, qonuniy jazo o'tayotgan insonga bir lahza bo'lsin erkinlik tortiq eta olmaydi. Bugun bunday insonlar xalqning bag'rikengligini, saxiyiligini, mehriini his etdi.

O'ylaymizki, kechirilgan har bir shaxs o'ziga bildirilgan ishonchni oqlab, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga munosib hissa qo'shadi. Jamiyatda o'z o'rini topadi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimiz farmoni bilan afv etilgan yurtidoshlarimizga yana bir imkon, ishonch berildi. Oldinda esa ana shu ishonchni oqlash, yurtga munosib farzand bo'lish vazifasi turibdi.

## Bugunning gapi

# KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

## HAR BIRIMIZDAN BU ILLATGA NISBATAN MUROSASIZ BO'LISHNI TALAB ETADI

Zumrad BEKATOVA, Oliy Majlis Senatining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zosi

Bugun korrupsiya muammosiga deyarli har bir mamlakatda duch kelish mumkin. Shu bois, u keyingi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biriga aylandi. Korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlat uchun teng. Mazkur illat jamiyatning ma'naviy ustunlari hamda demokratiyani yemirib, davlatning turli sohalari, xususan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalaridagi islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois, unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.



"Ishonch telefoni", har bir vazirlik va davlat idoralarning ishonch telefonlari, virtual qabulxonalari tashkil qilindi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida barcha darajadagi davlat rahbarlarining sayyor qabullarini o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Davlat organlari va xo'jalik yuritish subyektlarida "komplyans-nazorat" tizimi joriy etildi.

Ayni yo'nalishdagi ishlar xalqaro tajriba va huquqning tegishli normalarini mamlakat qonunchiligi va amaliyotiga implementatsiya qilgan holda bajarilmoqda. Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilishi ham BMtning O'zbekiston ratifikatsiya qilgan Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi tegishli moddalarini, shuningdek, xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash amaliyotidagi Jakarta prinsiplariga misol bo'la oladi.

Hozir korrupsiyaga qarshi kurash yurtimizda ham dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston global korrupsiyaga qarshi kurash jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Buni keyingi yillarda sohaga oid qabul qilingan, konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni, Prezidentimizning qator farmon va qarorlari, korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha barcha davlat va jamoat tashkilotlari, mamlakat miqyosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni qamrab oluvchi davlat dasturlari qabul qilindi.

Ular asosan davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari keng joriy etildi. Ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik oldida hisobdorlikni oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni raqamlashtirish orqali inson omili aralashuvi minimal darajada kamaytirildi.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Ular aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini, davlat va jamiyat hayotining barcha sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlab, chek qo'yish, unga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik muqarrarlari prinsiplari ta'minlashdan iborat.

Xo'sh, ushbu yo'nalishlar korrupsiyaning oldini olishda qay darajada samara berishi mumkin? Masalan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishni oladigan bo'lsak, huquqiy ongi va madaniyati yuksak insonlar korrupsiyaga yo'l qo'ymasligi tajribadan ma'lum.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar va Adliya vazirliklari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti belgilangan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga

muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi nazarda tutilgan.

Qonunda belgilangan ushbu talablardan ko'rinib turibdiki, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat biror organ, tashkilot yoki tuzilmaning, balki butun jamiyatning bu masalada murosasiz bo'lishini, unga qarshi kurashuvini talab etadi.

Belgilangan chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan maxsus davlat organi — O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, bu boradagi davlat siyosatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi.

nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich tashkil etish choralari ko'riildi. Korrupsiya xavfini o'z vaqtida aniqlash, ularga olib boradigan oqibat, sabab va sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiya xavfi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan joylar aniqlanmoqda.

Davlat organlari faoliyatining ochiq-ochiq va shaffofligini ta'minlashga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Prezidentimizning "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiq-ochiq ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ochiq, e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlandi. Bugun



"O'zbekiston - 2030" strategiyasida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi. Sohada davlat siyosati izchilligini ta'minlash maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilindi.



Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida davlat va xo'jalik boshqaruvining barcha organlarida korrupsiyaga qarshi ichki

bunday ma'lumotlar 35 tadan 40 tagacha kengaytirildi.

Davlat organlarini optimallashtirish korrupsiyaga qarshi kurashning yana bir muhim jihati. Shundan kelib chiqib, ularning ixchamligi tizimli ravishda, bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda. Jumladan, tegishli hujjatlariga muvofiq, davlat organlari xodimlari soni 15 foizgacha maqbullashtirildi.

Korrupsiya holatlarining oldini olish va bartaraf etish uchun davlat boshqaruvi tizimida inson omili aralashuvini kamaytirish ham juda muhim. Shu bois, davlat va jamiyat boshqaruvi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilyapti. Ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, litsenziyalash va ruxsat berishga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda tezkorligini oshirish maqsadida barcha hududlarda davlat xizmatlari markazi tashkil etildi.

Keng jamoatchilik ishtirokida korrupsiyaga qarshi murosasiz muhit shakllantirilmoqda. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatini ko'rib chiqish tizimi tubdan takomillashtirilib, Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalari,



"Transparency International" xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 2023-yil yakunlari bo'yicha Korrupsiyani qabul qilish indeksida mamlakatimiz o'rni 5 pog'ona, Boshqaruvi sifati indikator va Hukumat ochiq-ochiq bo'yicha "Open Data Inventory" reytingida 15 pog'ona ko'tarilgan. Bu yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi islohotlar samarali natija berayotganidan dalolat.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



# INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING YANGI DAVRI



**Ayni paytda butun dunyodagi tahlil davrda "Inson huquqlari — oliy qadriyat" prinsipini so'zsiz ta'minlash har bir davlatning asosiy maqsadidir.**

**Bekzod NARIMONOV, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari, yuridik fanlar doktori**

## Boshlanishi 1-betda

"Bugun xalqimiz bilan yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo'ymoqdamiz. Ishonchim komil, bu — yangi O'zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho'qqilarini zabt etadigan davr bo'ladi. Bu davr parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo'yicha ibratli an'analar shakllanadigan va tarixga muhurlanadigan davr bo'ladi", dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbarining "Tabiatni asrash — insonni asrash" degan fikrida chuqur ma'no mujassam. Boisi, tabiat va insonni bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugun ona tabiatni asramay turib, inson huquqlari va manfaatlarini, jumladan, shaxsini erkin kamol toptirish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mushkul.

Murojaatnomada parlament nazorati, avvalo, xalq nazorati, xalq so'rovi ekanini ta'kidlangani ham bejiz emas. Ushbu mexanizm fuqarolarning manfaatlarini va huquqlarini himoya qilishning eng muhim usullaridir. Parlament nazorati demokratik davlatda dolzarb ahamiyatga ega. Bu nafaqat mansabdorlar mas'uliyati va javobgarligini kuchaytiradigan, fuqarolarning huquqlarini himoya qiladigan, balki jamiyatning davlat institutlariga ishonchini oshiradigan mexanizmdir. Ushbu nazorat samarali va mustaqil bo'lishi, shuningdek, jamoatchilik talablari va muammolari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanishi muhim.

## Inson — hayot gultoji

Inson huquqlari haqiqatan insoniyatning eng muhim va qimmatli yutuqlaridan biridir. Zotan shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar har doim murakkab bo'lgan. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Jon Lokk, Monteskye va boshqa ko'plab mutafakkirlar inson huquqlarini ta'minlashga oid turli yondashuvlarni taklif qilgan.

Olimlar inson huquqlarining mohiyatini, birinchidan, inson qadri, ikkinchidan, tenglik tashkil etadi, deya ta'kidlaydi. Xususan, Alisher Navoiy besh asr avval inson qadr-qimmatini haqida dunyoning bino bo'lmog'idan asl muddao inson ekanini haqida quyidagicha yozadi:

Ganjing aro naqd farovon edi,  
Lek boridin g'araz inson edi.  
Davlatchilik markazida inson va uning manfaatlarini turadi. Asosiy qonun inson omilidan kuch oladi va tirik organizm kabi xalq hayotining ajralmas bo'lagiga aylanadi.

Bashariyatning buyuk adiblaridan biri Uilyam Shekspir "Qonunlar mazmuni insonni qadrlashdir", deya inson huquqlarining ahamiyatini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi muhim tarixiy voqea bo'lgan. Chunki bu hodisa inson huquqlari sohasida xalqaro normalar va standartlarning shakllanishiga poydevor bo'ldi.

Mutafakkirlar insoniyatning uzoq tarixi davomida odamlarga o'z fikrlarini erkin bildirish, muhim qaror qabul qilishda ishtirok etish va manfaatlarini himoya qilish imkonini berishga qaratilgan demokratik institutlar haqida dolzarb g'oyalarni ilgari surdi. Ammo demokratiyaning o'zi inson huquqlarini himoya qilishni kafolatlamaydi — ularni himoya qilish va ta'minlashga qodir kuchli institutlar va mexanizmlar mavjud bo'lishi kerak. Ana shunday demokratik institutlardan biri inson huquqlari bo'yicha ombudsmandir.

Ushbu institut dunyoda ombudsman, parlamentning vakolatli a'zosi, fuqarolik huquqlari bo'yicha komissar, xalq advokati, fuqarolik himoyachisi, vositachi kabi turlicha

parlamentda baralla ayta oladigan chinakam xalq ovozigacha aylanishiga xizmat qiladi.

## Ombudsman kafolatlarini mustahkamlash — xalqimiz va zamon talabi

Inson huquqlarini ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini kuchaytirish, amaldagi mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan kompleks choralar Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili — ombudsman ham katta mas'uliyat yuklamog'ida.

Ombudsman instituti parlament nazorati instituti sifatida har bir insonning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyachisi bo'lishi, shaffof va mas'uliyatli faoliyati orqali zarur muvozanatni ta'minlashi lozim.



**Bosh qonunimizning 98-moddasiga asosan, saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqaro Oliy Majlis Senati, Markaziy saylov komissiyasi bilan bir qatorda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) ham qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli ekanini mustahkamladi. Bu Ombudsman institutiga nafaqat muhim konstitutsiyaviy vakolat, balki ulkan mas'uliyat va javobgarlik ham yuklaydi.**

## Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — inson huquqlari bo'yicha yangi davr hujjati

nomlanishi mumkin, lekin uning mohiyati va tabiati bir-biriga yaqin. Mamlakatimizdagi insonparvar siyosat tufayli Ombudsman instituti inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi mustaqil organ sifatida rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlariga oid normalar soni 3,5 barobar oshirildi hamda bu normalar Bosh qonunimizning qariyb 50 foizdan ortig'ini tashkil qildi. Jumladan, inson huquqi va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari, xususan, qonunlardagi noaniqliklarning inson foydasiga hal bo'lishi, "sukut saqlash" huquqining birinchi marotaba belgilanishi, advokatlar maqomi tergovchi va prokuror maqomiga tenglashtirilishi kabi yangi konstitutsiyaviy qoidalar belgilandi. Mazkur o'zgarishlar esa, o'z navbatida, davlatning inson huquqlariga sodiqligini va bu boradagi majburiyatlarini namoyon etadi.

Shuningdek, Konstitutsiyada inson huquqi va erkinliklarini ta'minlash — davlatning oliy majburiyati etib belgilanishi, inson va davlat organlari o'rtasidagi yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta'sir choralarini qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi kabi prinsip va qoidalar inson huquqi hamda erkinliklari kafolatini kuchaytirdi.

Bosh qonunimizning 98-moddasiga asosan, saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqaro Oliy Majlis Senati, Markaziy saylov komissiyasi bilan bir qatorda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) ham qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli ekanini mustahkamladi. Bu Ombudsman institutiga nafaqat muhim konstitutsiyaviy vakolat, balki ulkan

Bundan tashqari, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sohaga oid tizimli muammolarni aniqlash, huquq buzilishlarining oldini olishga doir kompleks choralar ko'rish, huquqiy savodxonlikni

huquqlari bo'yicha milliy institutlarga to'xtalib, jumladan, bunday degandi: "Konstitutsiyamizda qat'iy belgilab qo'yilganidek, insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz bo'lib, uning huquqlari



va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarimizdan biridir. Ushbu yo'nalishda asosiy e'tiborimiz bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etishga, shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, Bolalar ombudsmani va boshqa inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi".

Bundan tashqari, parlament va tegishli institutlarning inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyundagi "Qiyonoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda 2021-yil 10-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

2022-yil 1-yanvardan ombudsmaning joylarda doimiy asosda faoliyat yurituvchi hududiy 14 vakili lavozimi joriy qilindi. Mazkur yangilik ombudsmaning joylarda inson huquqlarini ta'minlashga doir faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida ombudsman faoliyatini takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish belgilangan.

Davlatimiz rahbari joriy yil 15-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonuni imzoladi. Unga ko'ra, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha



instituti hamda xalqaro subyektlar bilan muloqoti va hamkorligini ta'minlovchi ko'priksiz desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Prezidenti Konstitutsiyamiz qabul qilinishining 31 yilligi munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta'minlashda inson

vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo'lib, davlat organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlaydi.

## Kafolatlar kuchaytirilmoqda

Mazkur qonunda ombudsmaning o'z vazifalarini muvofiqlashtirish hamda samarali amalga oshirishi uchun qo'shimcha kafolat hamda huquqlar berildi. Qonunga ko'ra, ombudsman fuqarolarning, mamlakat hududida turgan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning, yuridik shaxslarning inson huquqlari va erkinliklarini buzayotgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarning harakatlari yoxud harakatsizligi ustidan bergan shikoyatlarini ko'rib chiqadi hamda tekshiruv o'tkazish huquqiga ega.

Bunda ombudsman murojaat etuvchiga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilgan to'g'risida ma'lum bo'lgan paytda e'tiboran yoki boshqa vositalardan foydalangan hamda qabul qilingan qarorlardan qanoatlanmagan bo'lsa, uning shikoyati bo'yicha oxirgi qaror qabul qilingan paytda e'tiboran bir yil ichida berilgan shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

Ombudsmaning yillik ma'ruzasidan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko'rishga qaratilgan maxsus ma'ruzalar taqdim qilish huquqi mustahkamlandi.

Eng muhim jihatlardan biri qonun bilan ombudsmaning qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi berilishi aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniqlangan muammolarga tezkor javob qaytarishga imkon beradi hamda adolati va samarali qonunlar qabul qilinishiga hissa qo'shadi.

Ombudsmaning maxsus ma'ruzasi insonning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash bo'yicha xulosa yoki takliflardan iborat bo'ladi. Ombudsman inson huquqlari buzilishiga oid murojaatlarni tizimli tahlil qilish asosida jamiyatning "signali"ni davlat rahbari, xalq vakillari va hukumatga bildirib turadi. Bu esa, o'z navbatida, oqibat bilan kurashish emas, balki inson huquqlariga oid qonun buzilishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tizimli choralar ko'rilishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ombudsmaning doimiy asosda ishlovchi hududiy vakillarining huquqi maqsadida qonun o'z ifodasini topmog'ida. Shu bilan birga, ombudsman tomonidan davlat organlari va tashkilotlar rahbarlariga aniqlangan qonun buzilishlari bo'yicha ularni sodir etishga imkon yaratgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma kiritish huquqi mustahkamlandi.

Jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsonalari hududida "Ombudsman qutisi"ni saqlashning huquqiy mexanizmlari, unda erkinlikdan mahrum etilgan shaxslar tomonidan murojaatlarni joylashtirish tartibi, qiyonoqlarning oldini olish bo'yicha faoliyatga ko'maklashish uchun jamoatchilik asosida amal qiladigan jamoatchilik guruhlari tashkil etilishi belgilandi. Bu o'z o'zida ombudsmaning qiyonoqlarning oldini olishga oid faoliyati huquqiy kafolatlarini mustahkamlaydi hamda uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qonun bilan mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shuki, davlat organlari va tashkilotlarining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalarini ko'rib chiqish bilan bog'liq yig'ilishlari, jumladan, Oliy sud plenumi majlislarida ombudsmaning ishtirok etish huquqi kafolatlandi.

Shu bilan birga, mazkur qonunga muvofiqlashtirishni nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga, xususan, 2 ta kodeks va 5 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Mazkur qonunni tayyorlashda 30 dan ortiq davlat, xususan, Finlyandiya, Polsha, Bolgariya, Vengriya, Serbiya, Gretsiya, Ispaniya, Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa mamlakatlarning shu sohada qonunchiligi atrofiacha o'rganildi.

## Inson huquqlariga oid parlament diplomatiyasi yanada rivojlanadi

Mamlakatimizdagi ochiq va pragmatik tashqi siyosat ombudsman faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xorijiy mamlakatlar ombudsmanlari va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish ombudsman faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Xususan, Parij tamoyillariga muvofiq, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) instituti 2020-yilda Milliy huquqni himoya qilish muassasalari global alyansida "B" maqomini olgan edi. Bugun "A" maqomini olish bo'yicha Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tomonidan keng ko'lami ishlar bajarilmoqda.

Ayni paytda butun dunyodagi tahlil davrda "Inson huquqlari — oliy qadriyat" prinsipini so'zsiz ta'minlash har bir davlatning asosiy maqsadidir. Shu ma'noda, yangi tahrirdagi qonunning qabul qilinishi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) institutining mustaqil milliy institut sifatidagi maqomini yanada mustahkamlab, Ombudsman faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirilishiga, uning inson huquqi va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash borasidagi vakolatlari kengayishiga hamda ombudsmaning parlament nazorati instituti sifatida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faolligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz

Tahlil va taqqos

tumanlarining suv ta'minotida muammo mavjud ayrim mahallalarga alohida e'tibor qaraladi. Suv ta'minotini yaxshilash va isrofgarlikning oldini olishda fermerlar ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, fermer xo'jaliklari hisobidagi 17 ming kilometr ichki sug'orish tarmog'i betonlashtirildi.

Aholiga dehqonchilik qilish uchun bo'lib berilgan yerda Sayxunobod tajribasi asosida mahsulot yetishtirish ishlari jadal bajarilmoqda. Jumladan, ajratilgan yer va tomorqalardan unumli foydalanishda aholiga ilmiy-amaliy jihatdan ko'maklashilayapti. Xorijiy tajribani o'rganib, kartoshkachilik tizimini takomillashtirish va hosildorligini oshirish ustida mutasaddi idoralar bilan birgalikda ishlanyapti.

Shuningdek, "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida mahallalarni ixtisoslashtirish, 152 ming yurtdoshimiz tomorqasidagi ixcham issiqxonalarda va plyonka ostida mahsulotlar yetishtirish orqali Surxondaryo tajribasini barcha hududlarga keng joriy qilish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan. Qolaversa, 54 ta tumanda eksport bo'yida serdaromad ekinlar ekish uchun namunaviy o'quv-tajriba maydoni tashkil etib, tomorqa yer egalari bilan bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun jamg'arma mablag'i hisobidan tomorqa xizmati korxonalarini, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari 120 milliard so'm kredit ajratiladi.

**"O'zbekiston — 2030" strategiyasida qishloq xo'jaligi bo'yicha ham muhim vazifalar belgilab qo'yilgan. Jumladan, bir gektardan olinadigan o'rta daromadni 5 ming dollarga, qishloq xo'jaligi sohasida eksport qiymatini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiya jalb qilish, hosildorlik ko'rsatkichini paxta bo'yicha o'rtacha 45-50 sentnerga, g'alla bo'yicha 80-85 sentnerga yetkazish maqsad qilgan.**

2025-yilda esa mamlakatimiz 1 million kishini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha katta marra olgan. Bu maqsadlarga 46,5 trilyon so'm yo'naltirilib, 100 ming gektar yer dehqonchilik va bog'dorchilik tashkil etish uchun 200 ming kambag'al oilaga ijara berildi. Bularning barchasi, shubhasiz, inson manfaatlarini ta'minlash, aholining yashash sharoitini yaxshilash va yangi ish o'rinlari ochish, kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi.

# QISHLOQ XO'JALIGIDAGI ISLOHOTLAR

## AHOLI FAROVONLIGI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI GAROVIDIR



**Aktram HAITOV,**  
Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi

barqaror rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Birgina "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi qonun bilan tomorqa xo'jaliklarini yuritishni tashkil etish va rivojlantirish sohasidagi munosabatlar tartibga solindi. Xususan, mazkur hujjatda shaxsiy tomorqa yer uchastkalaridan tomorqa xo'jaligini yuritish uchun foydalanuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari, tomorqa xo'jaliklarini yuritishni tashkil etish hamda rivojlantirish sohasida ijro etuvchi hokimiyat va xo'jalik boshqaruvi organlarining vazifalari belgilab qo'yildi. Bugun yurtimizda 590 ming gektar yerda 5,5 milliondan ortiq tomorqa xo'jaligi faoliyat yuritayapti. Ular yetishtirgan mahsulotlar xalqimiz dasturxonini to'kinligini ta'minlayapti.

"Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonun bilan esa dehqon xo'jaliklariga ko'plab imtiyoz va imkoniyatlar berildi. Bunday sharoit ilgari dehqonlar, yer egalari uchun faqat orzu bo'lgan. Bugun ular yangi O'zbekistondagi mana shunday ko'plab imtiyozlardan unumli foydalanib, dehqon xo'jaliklarini yanada rivojlantirish, hech kimga qaram bo'lmay, erkin faoliyat yuritish imkoniyatiga ega. Ayni paytda dehqon xo'jaliklari uchun ajratilgan 193 ming 167 gektar yerda qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirilmoqda.

Mazkur qonun asosida suv ta'minoti yaxshi bo'lgan, paxta va g'alladan qisqartirilgan 253 ming gektardan ortiq yer 863 mingga yaqin fuqaroga dehqon xo'jaligi tashkil etish orqali sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun 30-yilga ijara berildi.



Peshona terini to'kib mehnat qilayotgan, yer va suvdan unumli foydalanayotgan fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari bozorlarimiz to'kinligini ta'minlayotgan fidoyi vatandoshlarimizdir. Ayni kunda mamlakatimizda 3 million 523 ming gektardan ziyod maydonda 91 mingdan ortiq fermer xo'jaligi faoliyat yuritilmoqda.

Bozorlarimizga yetkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda nafaqat dehqon va fermerlar, balki aholing ham hisssasi ortib borayotir. Bu boradagi sharoitlar natijasida 386 ming 350 fuqaro tomorqa xo'jaligida o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida soliq bazasiga kiritildi. Ular 847,7 ming gektar yerda bahorgi va takroriy ekinlar yetishtiryapti. Aholi daromadini oshirishning

asosiy manbai bo'lgan ixcham issiqxonalarini ko'paytirish orqali esa yiliga 2-3 marta hosil olish yo'lga qo'yildi.

"Tomorqa xizmati" MCHJlar faoliyati ham yildan yilga kengayib bormoqda. Hozir hududlarda 3 mingdan ortiq "Tomorqa xizmati" MCHJ va mingdan ziyod yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati yo'lga qo'yilib, 668,2 mingdan ortiq xonadonga xizmat ko'rsatilmoqda. Aholi tomorqalariga kompleks xizmat ko'rsatish uchun "Tomorqa xizmati" ko'rinishidagi 686 yakka tartibdagi tadbirkorga 21,5 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi. Hududlarda 17 ta tomorqa xizmati klasteri faoliyat yo'lga qo'yilib, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 24,7 milliard so'm ajratib berildi.

Aholi gavjum mahallalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun 852 ta kichik hajmi sovitkich ombor, 1013 ta mini quritish, saralash va qadoqlash uskunasi hamda 625 ta ko'chat, urug'lik, mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni sotishga ixtisoslashtirilgan ixcham dala do'koni tashkil etildi.

Ekin mo'l hosil berishi uchun suv bilan ta'minlanganlik darajasi juda muhim. Ana shuni hisobga olib, joriy yilda suv ta'minoti og'ir bo'lgan 22 ta mahallada katta va kichik hajmdagi arteziyan quduqlari qazish orqali aholi tomorqalarida suv ta'minotini yaxshilash chorasi ko'ridi. Buning uchun 7,5 milliard so'm subsidiya ajratiladi. Xususan, Yangiobod, Zomin, G'uzor, Kasbi, Koson, Ishtixon, Qo'shrabot, Paxtachi, Furqat, O'zbekiston

## O'ramizdagi odamlar

# NARIGI QIRG'OQDAGI AYOL

## sholichilikdan har yili 1 milliard foyda topyapti

Muzrabot tumani Surxondaryo viloyatining qo'shni Afg'oniston va Turkmaniston bilan chegaradosh hududida joylashgan. Bu davlatlar bilan o'rtada Amudaryo sollarini oqadi. Tuman ahli azaldan dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, sholichilik bilan shug'ullanib kelgan. Garchi hudud yirik daryoga yondosh bo'lsa-da, qirg'oqning ancha pastlab ketishi oqibatida tumaning katta qismiga ko'hna Jayhun suvini chiqarish imkoniyati mavjud emas.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



Azaldan xalq orasida uddaburon, ishbilarmon odamlarga "Qayiq daryoga tushishi istamas, daryoni qayiqqa tomon yo'l ochib ketiradiganlardan", deya nisbat beriladi.

Tumaning Fidokor mahallasilik Oybahor Jabborova ana shunday tadbirkorlardan. Onaxonning yoshi 70 dovdandan o'tgan bo'lsa-da, to'rt faslida ham daladan beri kelmaydi. Uni doimo keng va shovillagan sholizordan topasiz. Oybahor opa qariyb yarim asrdan buyon sholichilik bilan shug'ullanadi va bugunga qadar mehnati ortidan e'tirof qozonganlardan.

Hozir sholizor bo'lgan keng maydonlar o'rnida bir zamonlar o'nlab katta-kichik ko'llar bo'lardi. To'g'ayzor va botqoqlikda yashovchi bor hasharot qishloq oralaridi. Shu tomonlardagi aholining yuragi bezillardi, ammo

yechimi haqida hech kim o'ylamasdi. So'ng botqoqliklaro maydonlar ochdik. Avvallari qiyin kechdi, keyin o'rganib ketdik. Hozir boshqa joylarda gektardan 15 sentner hosil olingan bir paytda biz 45-50 sentnergacha hosil ko'taryapmiz, — deydi Oybahor Jabborova. — Sholi biz uchun ikkinchi ekin. Dastlab 200 gektar yerga g'alla ekamiz. Uning foydasi 300-400 million so'mni tashkil etadi. Izidan sholi ekamiz. Undan oladigan daromad esa anchagina yaxshi. Yiliga 1 milliard so'mga yaqin foyda olamiz. Yaxshi daromad olish uchun yerdan mehnri ayamaslik kerak. Uning ozuqasini uzmaslik va qiymaslik lozim.

Mamlakatimizda sholi aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan. Oqsil va vitaminlarga boy guruch odamlar sevib iste'mol qiladigan, bayram va to'yalarda

dasturxonimiz ko'rki — palovxonto'raning asosiy masallig'idir.

— Yetishtirgan hosilimiz ancha xaridorgir. Muhimi, bozor qidirmaysiz. Dalaning, omborning o'zidan yuklanadi, — deydi onaxon. — O'zbek xalqining to'yu tomoshasi, tadbiri ma'rakasi ko'p. Joylarga borganda "Zo'r osh bo'libdi. Oybahor momoning guruchidan osh damlashibdi-da", deyishsa, ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Yil bo'yi dalada yurgandagi charchog'im chiqib ketadi.

Prezidentimizning 2021-yil 2-fevraldagi "Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Oybahor Jabborova singari tadbirkor va mirishkorlar — dasturxon to'kinligini ta'minlashga intilganlar uchun yanada keng yo'l ochgani bilan muhim bo'ldi.

Qarorda sholi maydonlarining kamida 20 foizida sholini ko'chatlab ekish, 50 foizida lazer yordamida yer tekislash tizimini joriy etish kabilar ko'zda tutilgan. Bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida joriy yil 15-avgustda Prezidentimizning "Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham qabul qilindi. Endi 2024-yil 1-sentabrda fermer, dehqon xo'jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga sholi yetishtirish va xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun belgilangan shartlarda imtiyozli kreditlar ajratiladi. 2025-2026-yillarda sholi ekish uchun xarid qilingan va ishlab chiqarilganiga bir yildan oshmagani yangi urug' seyakalari hamda ko'chatlab ekish uskunalarini qiymatining 20 foizi davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish orqali qoplab beriladi. Har bir soha va tarmoq, yo'nalishlar kesimida qo'llab-quvvatlov bilan bog'liq qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar muzrabotlik yemish yoshli mirishkorni ham xursand qilgani bor gap.

Bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab ortishi suv talab ekinlarni yetishtirishda tejamkor texnologiyalarni keng qo'llash zarurati yuzaga keltiradi. Nafaqat sholichilikda, balki paxtachilik, g'allachilik yo'nalishlarida ham tumanidagi ilg'or fermerlardan biri bo'lgan onaxon ish faoliyatida bunga alohida e'tibor qarataadi.

Kattagina xonadonning piru badavlat kayvoni onaxoni bugun ham sira tinmaydi. — Don, ayniqsa, sholi qadimdan xalq uchun rizq-ro'z, to'kin-sochinlik ramzi. U chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik kabi sohalarning ham asosiy ozuqasi, — deydi Oybahor Jabborova. — Shu sabab sholi yetishtiraman degan odam bir vaqtning o'zida sholichilik intilgan chorvachilikdan ham, boshqa yo'nalishlardan ham yaxshigina daromad olishi mumkin.

Ko'hna Amu yoqasida sholizor kezib yurgan bo' onaxoni ko'rganlar, taniganlar "Osh bo'lsin doim shu momogal!" deyishadi. Onaxonning esa ularga javobi bu bo'ladi: "Yeganing osh bo'lsin, boshing tik va tosh bo'lsin!"

**Sarvar TO'RAYEV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

G'allachilik



# SHARAFLI KASBNING ULUG' NE'MATI

**Bolaligimizdan nonni e'zozlash, pokiza joyda saqlash, isrof qilmaslik, toza qo'l bilan ushatish, iste'mol qilishga da'vat etib kelingan. Yaqinlarimizni yo'qlash uchun ham ikkita non ko'tarib boramiz. Bu ehtiyojdan emas, balki ularga hurmat, izzat belgisi sifatida qaraladi. Qadri baland qadriyatlarimiz kundan kunga taraqqiy etib, rivojlanayapti. Ayniqsa, don mustaqilligiga erishish, ehtiyojimiz uchun kerakli g'allani o'z kuchimiz, imkoniyatimiz asosida yetishtirish borasidagi islohotlar xirmonlarimizni donga, dasturxonimizni nonga to'ldirdi.**

Qishloq xo'jaligi sohasidagi keng ko'lami islohotlar natijasida suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etish, xo'jalik va korxonalarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash orqali dehqon va fermerlar og'irini yengil qilish, manfaatdorligini oshirishga alohida e'tibor berib kelinayapti. Bu Prezidentimizning biz, qishloq xo'jaligi xodimlariga yo'llagan tabrigida ham alohida ta'kidlandi.

Rishton tumanida so'nggi to'rt yilda g'alla yetishtirish hajmi qariyb ellik foiz oshdi. Bundan to'rt-besh yil avval tumanida ko'pi bilan 30 ming tonna don yetishtirilgan bo'lsa, o'tgan yili bu boradagi ko'rsatkich 70 ming tonnadan oshdi. Gektarlar hosildorligi o'rta hisobda 80 sentnerga yetdi.

G'allachilikda klaster tizimi yo'lga qo'yilgani yutuqlar omili bo'lmoqda. Endi ish haqi, mineral o'g'it, yonilg'i yetkazib berish, suvdan oqilona foydalanish bilan bog'liq ish ko'lami kengaydi. Kam xarajat qilib, ko'p va sifatli hosil olish an'anasi quloq yoydi. Yangilangan sharoit va imkoniyatlar fermer xo'jaliklarining ishga munosabatini o'zgartirdi, manfaatdorligini oshirdi. Nafaqat xomashyo, balki tayyor va yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lami kengaydi.

"Birlashgan" mahalla fuqarolar yig'ini hududida Turkiya texnologiyasi asosida yillik quvvati 22 ming tonna bo'lgan donni qayta ishlash korxonasi faoliyatini yo'lga qo'ydi. Tumanimizda bunday korxonaga yo'q edi. Yetishtirilgan

mahsulotlar Bag'dod tumanidagi turdosh korxonalar olib borilgan. Bu ortiqcha vaqt, ovargadachilik, xarajat kelib chiqishiga sabab bo'lgan, pirovardida mahsulot tan narxiga ta'sir qilgan. Yangi korxonada sohadagi ortiqcha sarf-xarajat, bordi-keldi bilan bog'liq holatlarga barham berdi. Tayyor mahsulot bilan savdo qiluvchi do'kon, yangi yo'l va yo'laklar quridik, 20 dan ortiq ish o'rmi ochildi.

Joriy mavsumda 137 ta fermer xo'jaligi bilan tuzilgan shartnoma asosida 3700 gektar yerda g'alla yetishtirildi. Suv yetib borishi qiyin bo'lgan 700 gektardan ortiq maydonda yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi joriy etildi. Bu agrotexnik tadbirlar suv, mineral o'g'it, texnika xizmati bilan bog'liq sarf-xarajati 45-50 foizgacha tejadi, hosildorlik salmog'ini oshirdi.

Bundan tashqari, don va dukkakli ekinlarni saralash hamda qadoqlash tarmog'i ishga tushirildi. Istiqbolli rejalar dasturiga ko'ra, chorvachilik va sutni qayta ishlash yo'nalishida yangi investitsiyalarni o'zlashtirish borasida ishlayapmiz. Bu xomashyodan tortib, mahsulot tayyorlashgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi hamda qo'shimcha qiymat va o'ttizdan ortiq yangi ish o'rmi ochish imkonini beradi.

**Isomiddin O'RINBOYEV,**  
"Qahramon" g'allachilik klaster xo'jaligi rahbari

Farg'ona viloyati



**Sarvarxon BUZRUKXONOV,**  
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vaziri o'rinbosari

**Boshlanishi 1-betda**

Davlatimiz rahbari har bir chiqishida, jumladan, hududlarga tashrifida ham xalqimiz farovonligi va millat taraqqiyotiga daxldor muhim masalalarda ana shu o'q tomirimizni ma'naviy poydevor, ya'ni millat va davlat manfaatlarini aks ettirgan milliy g'oya hamda mafkura darajasiga ko'tarmoqda. Xususan, Prezidentimizning "Farzandlarimizni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ularni ilm-fan, IT texnologiyalar, ma'naviyat, san'at va adabiyot, sport bilan oshno etish uchun hech narsani ayamadan, bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz", degan ta'kidida ham aynan shu ezu niyat mujassam.

Hamma gap ham ma'nan, ham jismonan yetuk, yuqori intellektual salohiyatga ega, professional shaxsni tarbiyalash, bu jarayonda ma'naviy kamolot bilan iqtisodiy farovonlikni uyg'unlashtirish o'ziga xos. Chunki inson hayotga kelar ekan, shu ikki omil uchun harakat qiladi. Bir tomondan o'z xulqi, tarbiyasi, madaniyati va ma'naviyati bilan jamiyatda obro'-e'tibor va hurmat qozonishni istasa, ikkinchi tomondan munosib turmush tarziga, to'kin va farovon hayotga ega bo'lishni xohlaydi. Ya'ni har bir shaxs ijtimoiy dividend sifatida jamiyatdagi ma'naviy nufuzini, iqtisodiy dividend sifatida esa topgan daromadidan ortidan farovon hayot kechirishni orzu qiladi.

Bugun tinch-osoyshta hayotimizga, o'zimiz tanlagan taraqqiyot yo'lga to'siq bo'lgan iqtisodiy, mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar ko'lami global miqyosda kengayib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yuzaga kelgan notinchliklar, harbiy mojarolar, global tinchlik kafolati bo'lgan xalqaro institutlarning parchalanib borishi, dunyoning turli burchagida sodir bo'layotgan qonli to'qnashuvlar, iqtisodiy sanksiyalar va yangi dunyo tartiboti yuzaga kelishi bilan bog'liq global urush xavfining ortib borishi tobora xavfli va jiddiy tus olmoqda.

Shuning uchun ham davlatimiz rahbari Oliy Majlis Senati a'zolariga murojaat qilar ekan, aynan shu xavf-xatarlarning naqadar jiddiy ekanini quyidagicha ifodaladi:

# O'ZLIKNI ANGLASH SAODATI

## YOXUD YURTIMIZ TARAQQIYOTINING USTUNLARI

"Buyuk shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud bobomiz aytganlaridek, qadimgi ajdodlar bitta to'fon ko'rgan bo'lsa, bugun biz mingta to'fon ko'rmoqdamiz. Chindan ham, biz duch kelayotgan global muammolarning har biri bitta to'fon emasmi?"

Demak, shunday murakkab geosiyosiy jarayonlarda millat va davlatni tanazzuldan, beqarorlikdan asrab qoluvchi umumbashariy qadriyatlar, eng ulug' insoniy fazilatlar majmui bo'lgan ma'naviyatni asl holicha anglash, mazmun-mohiyatini chuqur tushunib yetish teran tafakkurni, keng dunyoqarashni, zarur bilim va salohiyatni talab qiladi.

O'z navbatida, ana shu teran tafakkur, zarur bilim va salohiyat bugun, avvalo, ziyolilar qatlamida, oliy ta'lim tizimida shakllanishi, so'ng talaba yoshlarimizning ongu shuuriga singdirilishi, shu tariqa butun jamiyatni harakatlantiruvchi kuchga aylanishi lozim. Zotan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Bugun faqat mana shunday ilg'or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatani



### Nuqtayi nazar

Bu kabi illatlar ustidan milliy madaniyat ustun kelishi uchun hur fikrli ziyolilar hamjihatligi, ta'lim-tarbiya ko'rgan, or-nomusli yigit-qizlarimiz va hamiyatli ota-onalarning sa'y-harakati talab etiladi.

Ana shu tarzda jamiyat, xalq, millat o'zligini anglay boshlar ekan, bu jarayonga qarshilik qilayotgan ozchilikni tanqid qilish, lozim bo'lsa, ularga farzand tarbiyasi, oilaviy muhit barqarorligini ta'minlash borasida aniq va qat'iy talablar qo'yish, mazkur talablar bajarilmagan holda jamoatchilikning samarali ta'sirini o'tkazish mumkin.

Davlatimiz rahbarining nutqidan olingan iqtibos mohiyati, birinchi navbatda, yoshlarimiz ongida har ikki o'q tomiri bir-biriga hamohang, uyg'un holda shakllantirish talabidan kelib chiqadi. Ya'ni faqat iqtisodiy omilning birlamchi o'rinda ko'tarib, ma'naviy qadriyatlarimiz ikkinchi darajaga tushib qolishi ham yoki aksincha, ma'naviy fazilatlar ustuvorligida kambag'allik, qashshoqlikning yuzaga kelishi

ham jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni buzadi. Ma'naviyatni, o'zlikni anglash jarayoni iqtisodiy farovonlikka erishish uchun xizmat qilsa, o'z navbatida, yuqori daromadga ega va moddiy jihatdan boy inson bir vaqtning o'zida yuksak ma'naviyatga ega bo'lsa, mana shunday jamiyatning kelajagi, istiqbolli yorug' bo'ladi.

Albatta, bugun insonlar ko'z o'ngida iqtisodiy o'sish va maishiy ehtiyojlarning ortib borishi jarayoni juda tez sur'at bilan sodir bo'lmoqda. Go'yo bu tezlikda do'ppi boshdan olib, insonga xos axloqiy fazilatlar, odamgarchilik va mehr-olibat haqida o'ylashga vaqt qolmayotgandek.

Barchamiz guvohimiz: davlatimizdagi keng ko'lami iqtisodiy islohotlar natijasida xalqimizning farovonlik darajasi keskin oshdi. Shunga muvofiq iste'mol va ehtiyoj ham. Bugun bozorlar, supermarketlarda kiyim-kechak, oziq-

ravnaqi yo'lida birlashgan xalqqa ega bo'lgan davlatgana o'z milliy manfaatlarini ta'minlashga erisha oladi".

Globallashtiruvchi davrda zamon, odamlar, ma'naviy, moddiy, maishiy shart-sharoitlar shitob bilan o'zgarib bormoqda. Shunga mos ravishda turmush tarzimizdagi maishiy tartib-qoidalar, ma'naviy qadriyatlar, tushunchalar ham ayri-ayri talqin etilmoqda. Bundan tashqari, bugungi davr internet resurslari va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarimizga tahdid soluvchi har xil begona va salbiy "madaniyat"lar kirib kelishi bilan ham tavsiflanadi.

Shu sababli, avvalo, bugun insonlar tafakkurida, turmush tarzida ma'naviyatning

qay tariqa namoyon bo'layotgani hamda qanday ma'naviy xatarlar mavjudligini aniqlash va baho berish, shu asosda targ'ibot obyektini, ko'lami va yo'nalishlarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugun ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan eng ulkan illat "ommaviy madaniyat"dir.

"Ommaviy madaniyat" hozirgi globallashtiruvchi jarayonida jamiyatda tez tomir otadigan ko'r-korona taqlid qilishdan tortib, barcha insoniy fazilatlar — oriyat, o'zaro ishonch va hurmat, kattaning kichikka, kichikning kattaga izzati, ota-bola, aka-uka, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi mehr-olibat yo'qolib borishiga qadar bo'lgan munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlanayotgan qusurdir.

**Globallashtiruvchi davrda zamon, odamlar, ma'naviy, moddiy, maishiy shart-sharoitlar shitob bilan o'zgarib bormoqda. Shunga mos ravishda turmush tarzimizdagi maishiy tartib-qoidalar, ma'naviy qadriyatlar, tushunchalar ham ayri-ayri talqin etilmoqda. Bundan tashqari, bugungi davr internet resurslari va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarimizga tahdid soluvchi har xil begona va salbiy "madaniyat"lar kirib kelishi bilan ham tavsiflanadi.**

## Salomatlik

# ENDI BEMORLAR SARSON BO'LMAYDI



**Jamshid Jamburov bir necha kun avval juda og'ir ahvolda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qoraqalpog'iston filialiga yotqizildi. Malakali shifokorlar bemorning salomatligi uchun xavf tug'dirgan kasallikni yengishga yordam berdi. Natijada jarrohlik amaliyotidan o'tish uchun Jamshidning Toshkent shahriga borishiga zarurat qolmadi. Shuningdek, G'abit Unabayevning og'ir kasallikdan oyoqqa turib ketishida ham shifokorlarning xizmati katta bo'ldi. Bemor bir yarim soatda operatsiya xonasidan chiqarildi. Injigul Berdaxova ham malakali shifokorlar borligidan mamnun.**

— Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qoraqalpog'iston filialida 19 yildan buyon hamshira bo'lib ishlayman. Orolbo'yi aholisiga eng zamonaviy markaz qurib berilgani uchun davlatimizdan minnatdormiz, — deydi Alfia Kenjemuratova. — Ilgari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qoraqalpog'iston filiali eski binoda joylashgan edi. Salkam chorak asr aholi salomatligi uchun xizmat ko'rsatgan bino juda eskirib, zamonaviy uskunalar davr talabiga mos kelmay qolgandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va qo'llab-quvvatlovi tufayli markaz qiyofasi tubdan o'zgaradi. Bu mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda "no"dan qurilgan birinchi ko'p tarmoqli shifoxona bo'ldi. Shifo istab kelgan bemorlar bugun yuqori texnologiyali sifatli tibbiy xizmatlardan foydalana boshladi. — Yigirma yildan buyon toza-ozoda, barcha sharoitlarga ega binomiz bo'lishini orzu qilardik.

Nihoyat istagimiz amalga oshadigan kunlar keldi. Joriy yil avgustida Prezidentimiz filialning yangi binosini ochib berdi. To'rt qavatli inshootda shoshilinch qabul-diagnostika, reanimatsiya, jarrohlik, neyrojrohlik, travmatologiya, kardiologiya, ginekologiya, pediatriya, laboratoriya tashxisi va amaliyot bo'limlari joylashgan. Barcha bo'limlar zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta'minlangan. 130 o'rinli yangi majmuada bemorlar va shifokorlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Oldinlari bir xonada 4-5 kishi yotgan bo'lsa, bugun xonalarimiz ikki kishiga mo'ljallangan, alohida sanitar xonalar mavjud, — deydi filial bosh shifokori Yernazar Xalmurzaev. — Bemor hayotini saqlab qolishda vaqt asosiy o'rinda turadi. Shu bois, markazimizda bemorlarni kasallik darajasi bo'yicha saralaydigan triaj tizimi tashkil etilgan. Ya'ni murojaat qilgan inson vaqtini yo'qotib, sarson-sargardon bo'lib, shifokorlar qabulida yurmaydi. Bu yerga shifokorning o'zi tushib,

bemorni qaysi ixtisoslik doirasida davolash zarurligi bo'yicha xulosa qiladi va kerakli bo'limga yo'naltiradi. Triaj tizimi biz uchun yangi tuzilma. Bemorlar ushbu tizim bo'yicha taqsimlanadi.

Masalan, qizil chiziq og'ir ahvolda kelgan bemorlar uchun mo'ljallangan. Ushbu chiziq orqali reanimatsiya bo'limiga yetkaziladi. U, shuningdek, kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ma'nosini ham bildiradi. Sariq chiziq o'rta ahvoldagi, ya'ni shoshilinch tibbiy yordam kerak, ammo hozirgi ahvoli hayoti uchun xavfli bo'lmagan bemorlarga mo'ljallangan. Yashil rang va yo'lakchalar shoshilinch bo'lmagan tibbiy yordamni anglatadi. Demak, bemor o'z oyog'i bilan kelib, murojaat qilishi mumkin. Ilgari bemorlar shifokor ko'rigidan o'tish uchun qabulda navbat kutib turardi. Endi shifoxonada butkul boshqacha, tez yordam shifokorlari bemorning oldiga o'zi keladigan bo'ldi. Bu "Inson qadri uchun" tamoyilining hayotbaxsh ifodasidir.

Yangi majmuada elektron navbat joriy qilingan. Bemorning ma'lumotlari tizimga kiritilib, boshqa bo'limlarga yetkaziladi. Ushbu tizim bemorlar uchun juda katta qulaylik yaratdi. Oldin murojaat qilgan bemorlarning aksariyati shifoxonaga yotqizilgan. Endi muayyan tibbiy muolajadan keyin bemorning holatiga qarab, yashash joyida ambulator davolanishga ruxsat beriladi. Shuningdek, ilgari yurak-qon tomir kasalliklari bilan murojaat qilganlarga oddiy tekshirish usulida yordam ko'rsatilgan. Endi

esa zamonaviy angiografiya uskunasi insonlar hayotini saqlab qolishda samara bermoqda. Buning natijasida o'lim va nogironlikka tushish holatlari keskin kamaygan.

— Bugunga qadar Toshkent shahrida o'tkazib kelingan ayrim murakkab jarrohlik amaliyoti endi shu yerning o'zida o'tkazilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog'istonda ilk marotaba sun'iy qon aylanish apparati orqali bemor yuragida ochiq jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Shuningdek, multipiral kompyuter tomografiyasi, ultratovush, laboratoriya uskunalar kasalliklarga erta tashxis qo'yish imkonini bermoqda. Telemeditsina orqali uzoqdagi bemorlarni davolashga ham hissa qo'shilmog'unda. Qoraqalpog'iston hududidagi tumanlarda jarrohlik operatsiyasini o'tkazishda telemeditsinadan foydalanib kelmoqdamiz. Neyroxirurgiya, travmatologik, xirurgiya

operatsiyalariga yordam bera olamiz, — deydi Yernazar Xalmurzaev. — Reanimatsiya bo'limi oldingi imoratidagiga taqqoslaganda butunlay yaxshilangan. Eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Bu yerda bemorni 2 soatdan 3-4 soatgacha nazorat qilish imkoniyati bor. U doim hamshira nazoratida bo'ladi. Oldin bunaqa sharoit yo'q edi. Prezidentimiz ushbu triaj tizimini butun O'zbekiston bo'ylab joriy etish kerakligini ta'kidladi. Ko'rib turganingizdek, markazimiz jahon standartlariga to'liq javob beradi. Germaniya va Yaponiyadan kelgan shifokorlar Qoraqalpog'istonda bunday markaz borligi ko'rib, hayron qoldi. Albatta, bu tibbiyotimiz yuqori bosqichga ko'tarilayotganidan darak beradi.

Markazdagi angiografiya bo'limida intervension-kardiolog shifokor Bek Sultan Mambetkarimov kardiolarrohlik amaliyotini



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

ovqat, sanoat va qurilish mollari, boringki, inson uchun zarur (hatto keragidan ortiq) barcha maishiy buyumlarning minglab turidan ko'zingiz qamashadi. Ularning sifati va turi, shakli shamoyili muttasil yangilanib, o'zgarib bormoqda. Aynan shu jarayonda ayrimlar faqat moddiy boylik to'plash, "birovdan kam bo'lmaslik"ka intilishdan boshqa maqsadni unutib qo'yishi mumkin. Shu sababli global iqtisodiy taraqqiyot sharoitida zamondoshlarimiz moddiy farovonlikka erishish, maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash yo'lidagi maqsadini o'zaro hurmat, mehr-olibat, muruvvat va saxovat, olijanoblik, birlik va hamjihatlik bilan uyg'unlashtirish olishi juda-juda muhim. Ya'ni iqtisodiy farovonlikka intilish ma'naviy qashshoqlikka sabab bo'lmasligi kerak.

Aslida, insoniy fazilatlar qadrsizlanishi bilan bog'liq ulkan xatar ham milliy urf-odatlar, an'analarimizga, o'zbekona qadriyatlarimizga qarshi turgan ma'naviy tahdid. Axloq-odob, milliy mentalitet va qadriyatlarimizga zid kiyinish, muomala madaniyatidan tortib, ko'r-korona ergashish, taqlid qilish kasalligi, boylikka o'chlik, axloqsizlik, moddiy boyliklarni ko'z-ko'z qilish, dabdaba va hashamga intilish, mehnatdan qochish, yengiltaklik, xudbinlik, individualizmning kuchayib borishi, jamoa manfaatlarini mensimaslik insondagi zohiriy belgi-xususiyatlarining ma'naviy-axloqiy fazilatlaridan ustun qo'yilishiga sabab bo'ladi.

Bularning barchasi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, jamiyat, davlat va oila oldidagi mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, xalqparvar, vatanparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlariga ega, irodasi baquvvat, imoni butun, vijdoni pok shaxslarni voyaga yetkazishga jiddiy xavf soladi.

Demak, bu borada ma'naviy xavf-xatarlar ko'lami, miqyosi va manbalarini chuqur tahlil qilgan holda "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya va jaholatga qarshi ma'rifat bilan" kurashish eng to'g'ri va samarali yo'l bo'lib qolaveradi.

Shu nuqtayi nazardan, asosiy vazifamiz o'quvchi va talabalarimiz ma'naviy-ma'rifiy sohadagi bilim, illatlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkamlashdan iborat bo'lib qoladi.

Ma'naviyat insoniy fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarimiz hayotdagi ustuvorligi erishilgan, jamiyatning barcha qatlamlari ularga amal qilgandagina yashab qoladi. Shu ma'noda, mamlakatimizning iqtisodiy rivojiga, xalq farovonligiga erishish, o'z navbatida, milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimizni asrab-avaylash va yanada ravnaq topishiga munosib hissa qo'shish, bugungi tinch-osoyshta, ozod va obod yurtda farovon umr kechirish, o'zlikni anglash har birimizning bosh maqsadimiz bo'lishi lozim.

o'tkaziyapti. Bugungacha 50 dan ortiq operatsiyani mustaqil amalga oshirdi.

— Ilgari bemorlarga yordam berishda qiynalardik. Faqat dori-darmon berish bilan cheklanardik. Bilasiz, bemorni faqat dori bilan davolab bo'lmaydi. Markazimizda angiografiya uskunasi o'rnatilganidan buyon tomirlarda tromb bo'yoqligini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldik. Stend ochib, tomirlarni qayta tiklab, yurakni qutqarib qolish ishlarini bemalol bajara olamiz, — deydi Bek Sultan Mambetkarimov. — Shuningdek, nurdan himoya qiladigan og'irli 20 kilogrammlik maxsus liboslarimiz ham bor. Bir kunda 3-4 jarrohlik amaliyoti o'tkazishimiz va buning uchun operatsiya xonasiga kirishimizga to'g'ri keladi. Bizni nurdan ushbu kiyimlar himoya qiladi. Bemorlarning sog'lig'i ham davlatimizning jiddiy nazoratida.

Markazning diqqatga sazovor yana bir jihati reanimatsiya va kardiologik amaliyotlarni o'rganish uchun laboratoriya tashkil etilganidir. Unda uskunalar yordamida o'quv-amaliy tajribalar o'tkaziladi. Eng asosiysi, O'zbekistonda sanoqli bo'lgan laparoskopiya uskunasi Prezidentimiz sovg'asi sifatida markazga topshirilgan. Ushbu uskunaga yuqori texnologiyali operatsiyalarni monitoring yordamida amalga oshirishda yordam beradi.

— Tajriba almashish maqsadida yosh shifokorlarimiz Hindiston, Rossiya va Turkiyaga o'qishga borib kelmoqda. Oldinlari chet davlatlarga borib o'qish masalasi juda qiyin edi. Hozir shifokorlar uchun ham imkoniyat bor, — deydi Yernazar Xalmurzaev. — Bir oz vaqt o'tishi bilan xorijdan mutaxassis-shifokorlarni jalb etishga ehtiyoj qolmaydi. O'zimizning shifokorlar bilan xalqning dardiga davo, kasaliga shifo topamiz. Aholiga sifati tibbiy yordam ko'rsatishga doim tayyormiz.

Salomatlik naikni insonning o'zi, balki jamiyat uchun ham juda katta va bebaho boylik. Har tomonlama sog'lom insonlardan iborat jamiyat esa taraqqiyot sari dadil odimlaydi. Shu bois, mamlakatimizda insonni qadrlashga davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaraladi. Sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish, tizimni talabablari, dunyo tibbiyoti andozalari darajasida rivojlantirish asosiy maqsad qilib olinagan.

**Minajatin QUTLIMURATOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Ko'ngildagi bitiklar

## KOMIL TARBIYADA

## musiqaning o'rnini

Yangi O'zbekistondagi tub islohotlar "Inson qadri uchun" degan tamoyilga qaratilgani bilan ahamiyatli. Aynan shu jihat xalqimiz qalbida ertangi kunga ishonchni mustahkamladi. Ochig'i, XXI asr odamini ishonirish oson emas. Chunki global dunyoda, demokratik jamiyatlarda barcha hodisalar kaftdagidek aniq ko'rinib turadi. Demak, boshlangan islohotlar hayotiy haqiqat ekani bois, xalqimiz ishonchi ortib boryapti.



Xayrulla LUTFULLAYEV,  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori,  
O'zbekiston xalq artisti

Albatta, bunday keng ko'lamdagi o'zgarishlar zamirida davlatimizning odilona siyosati yotibdi. Hayotiy kuzatuvlarim asosida aytishim mumkin: uchta davr, ya'ni sobiq sho'rolar tuzumi, mustaqillikning dastlabki yillari va yangi O'zbekistonda boshlangan o'zgarishlarga shohid bo'ldim. Bu uchala davrdagi shart-sharoit, imkoniyatlarni ko'rgan-kechirganlarim asosida qiyoslab, tahlil etish imkonim bor. Hech shubhasiz, mustaqil bo'lgach, o'tish davrining mashaqqatli yillarini boshdan kechirdik. Muayyan natijalarga erishdik ham. Ammo baralla aytaman: yangi O'zbekistonda inson qadriga e'tibor shonli tariximizdagi eng yorqin sahifalardan bo'lmoqda.

Yangi O'zbekistonda buni o'zgarishlar zamirida davlatimizning odilona siyosati yotibdi. Hayotiy kuzatuvlarim asosida aytishim mumkin: uchta davr, ya'ni sobiq sho'rolar tuzumi, mustaqillikning dastlabki yillari va yangi O'zbekistonda boshlangan o'zgarishlarga shohid bo'ldim. Bu uchala davrdagi shart-sharoit, imkoniyatlarni ko'rgan-kechirganlarim asosida qiyoslab, tahlil etish imkonim bor. Hech shubhasiz, mustaqil bo'lgach, o'tish davrining mashaqqatli yillarini boshdan kechirdik. Muayyan natijalarga erishdik ham. Ammo baralla aytaman: yangi O'zbekistonda inson qadriga e'tibor shonli tariximizdagi eng yorqin sahifalardan bo'lmoqda.

Prezidentimiz Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda kengaytirilgan yig'ilishida "Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak", degan edi.

Yon-atrofimizda yuzaga kelgan tahlikali vaziyat, jiddiy ziddiyatlar, axloqsizlik, zo'raonliklar vazmin xulosa chiqarishga undaydi. Bu borada uzoq yillik tajribamga tayangan holda aytamanki, ma'naviyatni taraqqiy ettirishda milliy musiqa san'atidan yanada keng foydalanish lozim.

Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda milliy musiqa san'atidan foydalanish ijtimoiy zarurat bo'lib, bunda san'atkor-pedagoglar zimmasida katta mas'uliyat bor.

O'zbek xalqi yuksak ma'naviyat, madaniyatga ega. Unda xalqimizning o'tmishi, hozirgi kuni ifodasini topgan. Jahonshumul kashfiyotlar qila olgan yuzlab allomalarni yetishtirishga xizmat qilgan. O'z o'mida ajdodlarimiz umumbashariy ahamiyatli ma'rifat shakllanishiga munosib hissa qo'shgan. Shuning uchun o'zbek milliy-ma'naviy merosi jahon madaniyatining ajralmas qismi, uzviy bo'lgidir.

Sharq allomalari va mutafakkirlarining asarlarida ifodalangan ma'naviy-axloqiy qarashlar insonlar ruhiyati va ma'naviyatida, yoshlar qalbida ezgulik va iftixor tuyg'usi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bu borada musiqa san'atining o'rni katta. Ayniqsa, estetik ahamiyati alohida. U tinglovchining musiqiy qobiliyati, xotirasi, didi va muhimi, dunyoqarashini o'stiradi. Shu asnoda yoshlarda vatanparvarlik, vatanni sevish va ardoqlash tuyg'usi rivojlanadi.

Bu borada Abu Nasr Forobiyning "Musiqahadida katta kitob" va boshqa asarlari, Abu Ali ibn Sinoning "Kitob ash-shifo", "Kitob an-najot", "Donishnoma" kabi asarlarining musiqi

## ma'naviy yuksalishga qaratilayotgan e'tibor zamiridagi hayotiy haqiqatlar

haqidagi bo'limlari, Abdurahmon Jomiyning "Risoi musiqa" kitobi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning musiqa haqidagi qarashlari muhim manbadir.

Abu Nasr Forobiy ta'rificha, "Ijodkorlik shunday ulug' fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak". Darhaqiqat, ijod qilish jarayonida inson izlanadi, kuzatadi, tadqiqotlar olib boradi, natijalarni tahlil qilib, mantiqiy xulosalar chiqaradi. Xulosaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani tajribada sinab boriladi.

2018-yildan buyon mamlakatimizda Xalqaro maqom san'ati anjumani o'tkazib kelinmoqda.



Bu yurtimizda musiqaning estetik ta'siri va shaxs tarbiyasidagi ma'naviy ahamiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, milliy o'zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlarni doirasini xalqaro miqyosda kengaytirishda beqiyos o'rin tutmoqda.



Davlatimiz rahbari maqom san'atini asrab-avaylashda atqoli davlat arbobi Sharof Rashidovning katta hisssasi borligini ta'kidledi. O'sha og'ir davrlarda Toshkent davlat konservatoriyasida maqom san'atini ilmiy o'rganish va xalqaro miqyosda targ'ib etishga asos solingan. Maqom ansambli tashkil etilgan. "Shashmaqom" durdonalari notaga olinib, 6 jilddan iborat mukammal kitob nashr qilingan.

Mazkur anjuman joriy yilda Zomin shahrida o'tkazildi. Unda Prezidentimiz ishtirok etib, bunday degan edi: "Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo'lgan maqom san'ati teran falsafiy ilidzlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Maqom — umumbashariy tuyg'ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san'at turi sifatida ham biz uchun g'oyat qadrlidir".

Maqom san'ati Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida jadal rivojlanib, yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. Abu Nasr Forobiy "Katta musiqa kitobi"da kuylarning nazariy va amaliy

mezonlarini ud sozi orqali mukammal tartibga keltirgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalimiz noyob musiqiy asarlar yaratib, maqom rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. XX asrda bu an'analarni Abdurauif Fitrat, Yunus Rajabiy kabi san'atshunos olimlar, Hojixon Boltayev, Komiljon Otanoyev, Turg'un Alimatov, Fattohxon Mamadaliyev va boshqa hufuzlar munosib davom ettirgan.



Davlatimiz rahbari maqom san'atini asrab-avaylashda atqoli davlat arbobi Sharof Rashidovning katta hisssasi borligini ta'kidledi. O'sha og'ir davrlarda Toshkent davlat konservatoriyasida maqom san'atini ilmiy o'rganish va xalqaro miqyosda targ'ib etishga asos solingan. Maqom ansambli tashkil etilgan. "Shashmaqom" durdonalari notaga olinib, 6 jilddan iborat mukammal kitob nashr qilingan.

Mumtoz musiqa san'atining gultoji bo'lgan betakror maqomlarimiz UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Endi dunyo san'atsevarlari tomonidan ham kuylanmoqda. Bu holat kishini faxrlantiradi.

Milliy musiqa san'atimizni asrash, targ'ib qilish, ommalashtirish borasida barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Hatto bunday vazifalar davlat dasturida alohida belgilab olingan. Endi ushbu vazifalarni amalga oshirish, milliy musiqamizni yoshlarga oshirish, milliy san'atkor-pedagoglarning burchidir.

Albatta, bu borada ustoz-shogird an'analari birinchi o'rinda turadi. Ustozlardan meros bo'lib kelayotgan milliy musiqamizni asliday va to'laqonli yetkazish, uning asl mohiyatini to'g'ri talqin qilishimiz lozim.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



## Uyg'oq fikr

## YORUG' KELAJAK

## EZGU MAQSADLAR ATROFIDA BIRLASHISHDAN BOSHLANADI

Vaqt yugurik. Zamon tezkor. Shunday ekan, ko'p gapirmay, o'ylanib o'tirmay, hamisha harakatda bo'lish zarur. Prezidentimizning shu yil 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqishga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasini tinglar ekanmiz, ana shu shoshqin lahzalarning shiddatini qalbimizda, tafakkurimizda his qildik.

"Mana, o'zingiz ko'ryapsiz, aholimiz 37 milliondan oshdi. Kelgusi 5 yilda esa, Xudo xohlasa, 40 milliondan ortishi

kutlamoqda. Bunday demografik o'sish, albatta, katta imkoniyat, lekin, shu bilan birga, bu holat oldimizga yangi-yangi, o'tkir vazifalarni qo'yishi ham shubhasiz. Ayniqsa, kambag'allikni qisqartirish, ekologiya, energetika, transport, yo'l, ichimlik suv ta'minoti, aholini uy-joy bilan ta'minlash kabi muhim sohalarda xalqimizning talab va ehtiyojlari tobora o'sib bormoqda", dedi davlatimiz rahbari. Bu so'zlarni yuragida vataniga muhabbati, atrofida insonlarga oqibati kuchli bo'lgan inson shunchaki tinglab o'tirolmaydi. Faoliyati, turmush tarzi va hatto o'y-xayolining ham ta'riflashga kirishadi.

Davlatimiz rahbarining so'zlarini tinglab, ko'nglimdan nimalar kechmadi, deysiz... Kechagina hamma narsaga befarq qaraydigan, dangasa va xayolparast ayoldan tadbirkor, hayotsevar onaga aylandim, — deydi jizzaxlik tadbirkor Mohichehra Eshmatova. — Bu jarayonda qo'shnilarim, mahalla-ko'y menga yordam berdi. Ayniqsa,

qo'shnim — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tadbirkor Sharofat Noriyevaning xizmati va ko'magi katta bo'ldi. Dastlab ko'chada to'xtab, "Bunday yuravermang, qo'shniyon, keling, safimizga qo'shiling. Yaxshi niyat dadil qadamlarga esh bo'ladi", deya maslahat bersa, yoqtirmaganman. Sharofat opaning bepul o'quv markazida o'qigach, hamma gap qalbimda, dunyoqarashimda ekanini anglay boshladim. Dastlab ikki metr joyga atirgul ekib, ishini gulchilik bilan boshlagan oddiy ayol edim. Bugun xonadonida issiqxonasi bor, kelgusida daromadini 3 barobar oshirib, tikuvchilik sexi ochishni reja qilayotgan zamonaviy va mulohazali tadbirkorlar safidaman.

Mohichehra opaning mahalladagi hamjihatlik borasidagi so'zlarini eshitib, bolaligim esimga tushdi. Enam rahmatli g'oyat tadbirli, zukko va mehnatkash ayol edi. Mahallaning to'rt ayoli bir joyda yig'ilib, shunchaki so'zlashib turganini ko'rsa, darhol



ular yoniga borib "Jon kelinjolar, bekordan Xudo bezor, shu gapingizni qo'lingizga kashta olib yoki biror ko'ylakning yamog'ini yamab gaplashsangiz ham bo'ladi-ku! Qani tez-tez uyingizga kiringlar, ro'zg'oringizga qaranglar. Yoki osmondan chalpak yog'ishini kut-yapsizlarmi?" deya dashnom beradi. Garchi bu tanbeh o'sha lahzada ularga yoqmasa-da, keyinchalik vaqtning qadriga yetgani bo'lsin, enami "Toshxon ayamiz", deb hurmat bilan eshlashardi. Qolaversa, qo'shni kelinlar biror ish qilmoqchi bo'lsa, avvalo, enamning maslahati va yordami kerak bo'lar edi-da...

— Mahallamizda ishsiz xotin-qizlar ancha edi, — deydi Farg'ona viloyati Uchko'priktumani Katta Qo'shtepa qishlog'ida yashovchi

E'zozxon Xoliqova. — Ularni jamlovchi, o'zaro hamjihat qiluvchi biror ish boshlash orzusida edim. Bir kuni turmush o'rtog'imga rejalarim haqida gapirib berdim. Avvaliga u gaplarimni shunchaki tingladi. Keyin o'zi ham bunga qiziqqa boshladi. Dastlab 2 ta tikuv mashinasi bilan ish boshlaganmiz. Ayni paytda 30 ta tikuv mashinasi va 50 ishchimiz bor. Qo'shnilarim qo'lga maosh olib, yaxshi kayfiyatda ro'zg'origa bozorlik qilganini ko'rsam, juda xursand bo'laman. Ayol kishi ham qo'lidan kelganicha oila farovonligi uchun mehnat qilishi, izlanishi zarur. Davr shuni talab qilayotgi. Kambag'alman, degan ayolni ko'rsam yoki eshitsam, jim o'tirolmayman. Kelgusida ko'rpa qavish,

quroqchilik va kashtachilik bo'yicha ham ish boshlash niyatidamiz. Bu harakatlarimiz farzandlarimizni o'qimishli va hunarli qilib tarbiyalashda juda asqatadi.

Davlatimiz rahbari zamondoshlarimiz qalbiga quvvat bo'ladigan, shijoat baxsh etadigan yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surdi. Qolaversa, 2024-yilda O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o'sayotgan 3 davlat qatoridan joy olgani, kambag'allik darajasi so'nggi 4 yilda 23 foizdan 11 foizga tushgani, bu yil esa yana 106 ming oila kambag'allikdan chiqarilib, 9 foizga yetishi kutilayotgani borasidagi ma'lumotlar bu tarixiy voqealarni kuzatayotgan ko'plab zamondoshlarimiz qalbini ravshan qildi.

Shukr, quyoshi saxiy, tuprog'i serhosil maskanda yashaymiz. Ota-bobalarimizning dehqonchilik, ziroatchilik, bog'dorchilik va gulchilik bobida bizga qoldirgan merosi ancha. Momolarimiz uyda o'tirib ham bog'-rog'larni yashnatib, gulzorlar barpo etib, ro'zg'orni o'z o'zlariga qildirgan bir necha hunarni o'zlashtirgan.

Avvalo, qalbimizda ishtiyok paydo bo'lsa, bas. Yaxshi niyatlar o'z-o'zidan dadil qadamlarga, tashabbuslarga yo'l ochib boraveradi. Butun dunyoda o'zgarish va yangilanishlar kechayotgan ayni pallada xotin-qizlar ham bor imkoni, salohiyati va zakovatini ishga solishi ayni muddao. Go'zal va farovon kunlarni kutmay, ular sari o'zimiz yo'l ochaylik. Davlatimiz rahbari jon kuydirib ta'kidlayotgan haqiqatlarni anglab, yuksak maqsadlar atrofida birlashsak, kelajagimiz, albatta, yorug' bo'ladi. Kelgusi avlodlarga ham namunal hayot sabog'larini taqdim eta olamiz. Zero, kayvoni va tadbirli enalarimiz ta'kidlaganidek, o'zimiz harakat qilmasak, hech qachon osmondan chalpak yog'maydi.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalanadi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4366.  
39932 nusxada bosildi.  
Ofset usulida bosilgan. Qog'oq bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Jonibek Aljonov  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy